



“PEDAGOGLARNING EHTIYOJLARGA ASOSLANGAN UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH TIZIMI: ILG‘OR TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”

Abdug‘aniyeva Gulnoza Mamatkarim qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Professional ta’lim fakulteti
1-bosqich magistranti*

Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak.

Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya: ushbu maqolada uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi, pedagoglarning ilg‘or tajribalari va rivojlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumot, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan darslarda samarali foydalanish va ularning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “uzluksiz kasbiy rivojlanish”, “ilg‘or tajribalar”, "pedagogik texnologiya", "texnologiya", "ta'limiy texnologiya".

Abstract- this article talks about the system of continuous professional development, best practices and development of pedagogues, information about modern pedagogical technologies, effective use of modern pedagogical technologies in classes and their importance.

Keywords: "continuous professional development", "best practices", "pedagogical technology", "technology", "educational technology".

KIRISH



Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, o'zgarishlar tezligi avlodlar almashinuvi tezligidan ilgarilab borayotganligi uchun jamiyatimiz bugungi kunda ko'proq o'z ustida ishlaydigan, erkin fikrlaydigan, ijodkor va tashabbuskor insonlarga ehtiyoj sezmoqda. Bularning hammasi pedagoglarning uzluksiz malakasini va pedagogik salohiyatini oshirishni, kasbiy rivojlantirishni talab etadi.

Hozirgi davrda pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda individual tarzda yondoshib pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy talablari va innovatsion usullarini bilishi hamda ularga asoslanishi, ilg'or pedagogik tajribalarni va fantexnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatiga tadbiq etishi, pedagogik jarayonlar subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullarini o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Zotan, pedagogning o'z ishiga ustaligi, moslashuvchanligi, ma'naviyati va intellektual salohiyati nafaqat ta'lim sifatiga, balki mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'sir etadi. Jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlarda pedagog yetakchi rolda ekanligini anglash uning ijodiy va kasbiy mahoratini, malakasini oshirishga katta e'tibor berishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.01.2022 yildagi 25-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Quyidagilarni nazarda tutuvchi Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin: xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining tuzilmasi (*Xalq ta'limi vazirligi, Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi, xalq ta'limi tizimidagi hududiy boshqaruv organlari, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti, Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari, nodavlat ta'lim tashkilotlari, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari*); xalq



ta'limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga tinglovchining alohida o'quv modullari bo'yicha o'qishi va ballarda ifodalanadigan o'zlashtirishini o'z ichiga olgan ta'limning kredit-modul tizimini joriy qilish tartibi; xalq ta'limi xodimlarining shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sishi jarayonini qamrab olgan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish mexanizmi; uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida tinglovchilarning an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlarini joriy etish tartibi; xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi bitiruvchisining qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

Ta'lim tizimida uzluksiz malaka oshirish jarayonining barcha bosqichlari va yo'nalishlarida pedagog xodimni o'z kasbiy tajribalarini, professional kompetentligini anglashga, tahlil qilish va baholashga, ehtiyojlarni aniqlash va to'ldirishga yo'naltirish zarur. Mazkur jarayonda pedagog xodimning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy-ijtimoiy maqomini o'stirish masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratish kerak. Chunki, malaka oshirish jarayoni pedagog xodimlarning nafaqat kasbiy, shu bilan birga yashash tarzi va hayotiy muammolarini hal etishga ham qaratilishi kerak. Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida pedagog xodimlarda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

Pedagoglarning uzluksiz malaka oshirish jarayonining asosiy maqsadi – rahbar va pedagog xodimlar shaxsiga va ularning kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlarda ular oldida turgan ta'limni modernizatsiya qilish, yangilash hamda rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni, shuningdek, rahbar va pedagog xodimlarning o'z kasbi va lavozimi yo'nalishidagi pedagogik va boshqaruv funksiyalarini bajarishga tayyorligining yetarli darajada emasligi o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishdan iborat bo'lishi zarur.



Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida pedagog xodimlarda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

1. Malaka oshirishga qo'yilayotgan yangi ijtimoiy talablarni hisobga olgan holda rahbar va pedagog xodimning o'z faoliyatini qayta anglashi va baholashi. Bunda rahbar va pedagog xodimlar o'z faoliyatini tahlil qiladilar va baholaydilar, maqsad, vositalar va natijalar o'rtasidagi nomuvofiqliklarni, tushunmovchiliklarni hamda o'zini o'zi rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlaydilar. Bunda faoliyatning odatiy stereotiplarini yo'qotish, yangi tushunchalar asosida o'zining shaxsiy va kasbiy faoliyati haqida tasavvur hosil qilish, eskirgan va samarasiz uslublar yordamida o'z faoliyatini amalga oshirish mumkin emasligini tushunib yetish nazarda tutiladi. Ular o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatda bo'lishga o'tadi va avvalgi faoliyatini tanqidiy tahlil qilish asosida kasbiyshaxsiy rivojlanish jarayonining faollashuvi vujudga keladi.

2. Kasbiy faoliyat yo'nalishidagi tushunchalarni va yangiliklarni, shu bilan birga mavjud muammolarni anglashga nisbatan intilishning o'zgarishi. Bunda rahbar va pedagog xodimlar bilimi, ko'nikma va malakalarining yangilanishi, ma'naviy va madaniy salohiyatning rivojlanishi hamda axborotlar almashinuvi amalga oshadi, ularda kasbiy faoliyat yo'nalishidagi tushunchalarning o'zgarishi va ayni vaqtda shaxsiy o'zgarishlar vujudga keladi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tajribalar boyiydi.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonining samaradorligini ta'minlashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- mazkur jarayon tanqidiy va tahliliy xarakterga ega bo'lishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- ijodiy hamkorlikni ta'minlovchi refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish; - subyekt-subyekt munosabatlarini rivojlantirish;



- shaxsiy imkoniyatlarni takomillashtirish uchun zarur psixologik muhitni vujudga keltirish;

- axborotlarning yangiligi va ishonchliligini ta'minlash.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim sifat samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati benihoya kattadir.

Innovatsiya (*ingl.innovation-kiritilgan yangilik, ixtiro*)-yangilanishni, o'zgarishni amalda joriy etish jarayoni va faoliyati. Ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va doiralarda qo'llanishini aks ettiradi.

Amaliyotda "pedagogik texnologiya", "ta'limiy texnologiya" va "ta'lim berish texnologiyasi" kabi atamalarning keng qo'llanishi kuzatilmoqda. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi, nima ajratib turishini tushunish uchun, "texnologiya va uning kelib chiquvchilari:"texnologik jarayon", "texnologik harakat", "texnologik xarita", "texnologik tartib" tushunchalarining mohiyatini aniqlash lozim. **"Texnologiya"** yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, *"techne"-mahorat, san'at, malaka* va *"logos"-so'z, ta'limot* ma'nolarini anglatgan.

Ta'lim texnologiyasi mavjud sharoit va belgilangan vaqtda muayyan ta'limiy maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, muloqot, axborot va



boshqaruvning eng qulay yo‘l hamda o‘qitish vositalarining tartibli yig‘indisi (ta’lim berish texnologiyasining jarayon- bayonli jihati); bu yuzaga kelgan ta’limiy jarayon subyektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta’lim berish texnologiyasining amaliy jarayoni)tartibi.

"Pedagogik texnologiya"-pedagogik hodisa va ta’limni texnologiyalashtirish sohasida qo‘llaniladigan tushuncha.

Pedagogik texnologiyaning YUNESKO tomonidan ma’qullangan ta’rifi:

Pedagogik texnologiya-bu ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, o‘qitish, bilish va o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish hamda qo‘llashning tizimli metodidir.

Fanni o‘qitish uslubiya-tidan farqli texnologiya:

"Qanday o‘qitish kerak?" degan savolga javob bermay, balki ahamiyatli qo‘shimcha bo‘lgan natijaviy "Qanday o‘qitish va o‘quv jarayonini qanday qilib eng maqbul tashkil etish kerak?" degan savolga javob beradi; aniq sharoitlardan kelib chiqqan va ma’lum natijaga yo‘nalgan aniq pedagogik g‘oyaga loyihalanganadi; o‘z natijalarini qayta ishlab chiqarishi bilan farqlanadi; ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchiga yo‘natirilgan darsning uslubiy ishlanmalaridan farqli o‘laroq, ta’lim olishda ular o‘z faoliyatlari hisobiga yutuq ta’minlanishiga yo‘naltiriladi.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularda bilimga ishtiyoq va qiziqishni yuksaltiradi, bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma hamda malakalarini shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Masalan:

"Har kim har kimga o‘rgatadi" metodi



"Har kim har kimga o'rgatadi metodi o'quvchilarga o'rgatuvchiga aylanish, ma'lum bilimlarni o'zlashtirgch, o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi o'qitish uslubidir. Bu metodning maqsadi o'quvchilarga o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda

Qo'llanilishi: o'quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o'quvchi ma'lum vaqt davomida iloji boricha ko'proq o'rtoqlariga yetkazadi.

- o'quvchilarda axborot olish va berishga qiziqish uyg'otish;
- axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolishga intilishni kuchaytirish; eshitgan axborotni boshqalarga ham yetkazish.

Afzalligi:

- o'z fikrini qisqa va lo'nda bayon etish;
- tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirish;

"Sinkveyn" metodi

- fanga yoki mavzuga bo'lgan qiziqish uyg'otish.

Bu metoddan foydalanganda o'qituvchi mavzuga mos bitta so'z tanlaydi va Sinkveyn tuziladi. Bunda keying so'zlar ma'nosiga qarab savol yoziladi va oxirida gap hosil qilinadi.

Quruvchilar so'ziga sinkveyn tuzishadi. Buning uchun ushbu gapda ishtirok etgan so'zlarga savollar beriladi:

1.Quruvchilar-kimlar?

2.Ko'rkam va chiroyli-qanday?

3.Bino-nima?

4.Qurdilar-nima qildilar?

5.Quruvchilar ko'rkam va chiroyli bino qurdilar.



Har bir soʻz izohlanadi, savol beriladi, quruvchilik kasbi haqida ma'lumot beriladi.

Tarmoqlash" (Klaster).

Qoʻllanishi: Mazkur metod turli xil g'oyalar oʻrtasidagi aloqalar, fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq obyektga yoʻnaltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bogʻliq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta oʻzlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda boʻlishini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Klaster" metodini oʻtkazish texnologiyasi.

1-qadam

1-bosqich. Nimaniki oʻylagan boʻlsangiz shuni qogʻozga yozing. Fikringizni sifati toʻgʻrisida oʻylab oʻtirmay, shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang

2-qadam

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan toʻxtamang. Agar ma'lum muddat biror-bir g'oyani oʻylay olmasangiz, u holda qogʻozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tugʻilgunga qadar davom ettiring.

3-qadam

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar koʻproq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlik va bogʻliqlikni koʻrsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular oʻrtasidagi aloqalarni koʻrsatishni cheklamang. Masalan: **"Oʻzbekiston"** soʻzini quyidgicha tarmoqlarga ajratish mumkin: Tarmoqlash g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan **"Klaster"** metodi puxta oʻylangan shakl boʻlib, undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashgʻulotlar jarayonida foydalanish mumkin.



MUSTAQILLIK

O'ZBEKISTON

TOSHKENT

Xulosa: Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar ta'limning uzluksizligi va individuallashtirishini, demokratlashuvi va shaxsga yo'naltirilishiga sabab bo'lmoqda. Ta'limda har qanday o'zgarishlar bo'lishidan qat'iy nazar, pedagog jamiyat taraqqiyotining asosiy targ'ibotchisi, bosh strateg va texnolog bo'lib qolaveradi. E'tiboringizga havola etilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni erkin fikr, mustaqil harakat, o'zaro hamjihatlik, fikrlarga tayanib bahs-munozaraga kirishish, bilganlarini tahlil etish, jo'shqinlik va faol harakat qilish orqali ko'zlagan natijani qo'lga kiritish mumkinligi e'tirof etiladi. Bu kabi yutuqlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish orqali erishish mumkin.

REFERENCES

1. [HTTP://LEX.UZ//RU/DOCS/-5828765](http://lex.uz//ru/docs/-5828765) XALQ TA'LIMI XODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA
2. МУСТАЕВ, Р. Д., УБАЙДУЛЛАЕВ, С. С., & Носирхонзода, А. Н. РОЛЬ СЕМЬИ, ОБЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У МОЛОДЕЖИ. *АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ*, 71.
3. МУСТАЕВ, Р. Д., УБАЙДУЛЛАЕВ, С. С., & Носирхонзода, А. Н. РОЛЬ СЕМЬИ, ОБЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У МОЛОДЕЖИ. *АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ*, 71.



4. МУСТАЕВ, Р. Д., УБАЙДУЛЛАЕВ, С. С., & Носирхонзода, А. Н. РОЛЬ СЕМЬИ, ОБЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У МОЛОДЕЖИ. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 71.
5. BOYMURODOVA G., SATTOROVA X VA BOSHQALAR. T.. "SHARQ" 2014.
6. MASHARIPOVA U., UMAROVA M., BAYNAZAROVA D., NABIYEVA M. ONA TILI. 1-SINF. O'QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO'LLANMA. T.: "SHARQ", 2014.
7. ISHMUHAMMEDOV R., ABDUQDIROV A. PARDAYEV A. TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR. T.: ISTE'DOD 2008.
8. XUDOYBERDIYEVA J.R., PEDAGOGLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHI VA MALAKA OSHIRISHINING ZAMONAVIY TALABLARI: "FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES"

ЗНАЧЕНИЕ АУДИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ И УМЕНИЙ У СТУДЕНТОВ ИЗУЧАЮЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК

Рахимова Фируза Шавкатовна

старший преподаватель кафедры Филиал АГТУ в Ташкентской области

Кафедра « Социально-гуманитарные и общепрофессиональные дисциплины»

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы использования и улучшения навыков аудирования в работе студентов в коммуникативной деятельности в обучении языковой сфере, а также использовании в деятельности метода аудирования.

Ключевые слова: Речевая деятельность, коммуникативная компетенция, обучение языкам, аудирование, современные технологии